



## XALQ DEPUTATLARI TOMDI TUMANI KENGASHINING QARORI

YANGI TOMDI QURG'ONI +998 94 375 1465 r.sibayevtomdikengash@nv.uz

2025-yil 25-iyul

VII-13-93-5-75-K/25

Tomdi tumani

### **Tomdi tuman hokimining ayrim qaror va farmoyishlarini tasdiqlash to'g'risida**

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Tomdi tumani hokimining 2025 yil 18 iyuldagi **“Tuman mahalliy byudjetining zaxira jamg'armasi hisobidanmablag' ajratish to'g'risida”**gi 103-5-75-F/25-sonli farmoiyshi tasdiqlansin.

2. Mazkur farmoiysh ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



UMAROV  
ORZUMUROD  
FAYZULLAYEVICH



## NAVOIY VILOYATI TOMDI TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 18-iyul

103-5-75-F/25

Tomdi tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14 martdagi “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-103-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 14 apreldagi 239-F-son farmoyishi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2025 yil 15 may kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 24-sonli topshiriqlari hamda viloyat hokimligining 2025 yil 16 iyundagi 06-01/585-sonli reja-jadvali ijrosini ta‘minlash maqsadida, Navoiy viloyati hokimligining 2025 yil 7 iyuldagi 08-08/649-sonli topshirig‘i, tuman oila va xotin-qizlar bo‘limining 2025 yil 17 iyuldagi 07-07/1907-sonli va tuman hokimligining 2025 yil 18 iyuldagi 23-sonli bildirgilarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan tuman moliya bo‘limining 2025 yil 18 iyuldagi 01-38/2803-sonli xulosasini inobatga olib,

1. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Abdimalikov) tuman mahalliy byudjetining zaxira jamg‘armasi manbalari hisobidan tuman hokimligiga ilovaga muvofiq **23951,0 ming so‘m** mablag‘ yo‘naltirsin.

2. Tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi (A.Dospanbetova), tuman hokimligi (K.Asubaev) ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlasin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Abdimalikov), g‘aznachilik bo‘linmasi (M.Medetov) tuman mahalliy byudjetining zaxira jamg‘armasi hisobidan yo‘naltiriladigan mablag‘larning amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq maqsadli sarflanishi ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatish hamda tuman mahalliy byudjetiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

4. Xalq deputatlari tuman kengashi kotibiyati (A.Jaysanbaev) mazkur farmoyish bilan ajratilayotgan mablag‘larni xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyasida ko‘rib chiqilishini tashkil etish tavsiya etilsin.

5. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Madenov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**O.Umarov**

Tomdi tumani hokimining  
2025-yil 18-iyuldagi  
103-5-75-F/25-son farmoyishiga  
1-ilova

**Tuman mahalliy byudjetining zaxira jamg'armasi manbalari hisobidan yo'naltiriladigan mablag'lar**

ming so'mda

<b>№</b>	<b>Tashkilot nomi</b>	<b>Maqsadi</b>	<b>Ajratiladigan mablag' miqdori (ming so'mda)</b>	<b>Asoslantiruvchi hujjatlar</b>
1.	Tuman hokimligiga	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14 martdagi PQ-103-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 14 apreldagi 239-F-son farmoyishiga asosan "Ayollar daftari"ga kiritilgan 16 nafar ehtiyojmand xotin-qizlarning Toshkent viloyati Bustanliq tumanidagi dam olish maskanlariga sayohatga borib kelish bilan bog'liq xarajatlari uchun	8951,0	Navoiy viloyati hokimligining 2025 yil 7 iyuldagi 08-08/649-sonli topshirig'i hamda tuman oila va xotin-qizlar bo'limining 2025 yil 17 iyuldagi 07-07/1907-sonli bildirgisi
		Tumanda o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha "Dolzarb to'qson kunlik" dasturi doirasida madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlarini o'tkazish bilan bog'liq tadbir xarajatlari uchun	15000,0	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2025 yil 15 may kuni o'tkazilgan videosektor yig'ilishining 24-sonli topshiriqlari hamda viloyat hokimligining 2025 yil 16 iyundagi 06-01/585-sonli reja-jadvali va tuman hokimligining 2025 yil 18 iyuldagi 23-sonli bildirgisi
<b>J A M I:</b>			<b>23951,0</b>	